

Ingliz Tilida Evfemizmlarni Shakllantirish Usullari

*Ibragimova So'g'diyona Ikrom qizi*¹

Annotatsiya: Mazkur maqolada evfemizmlarning jahon tilshunosligida nechog'liq puxta tadqiq etilganligi, evfemizmlarni hosil qilishning bir necha usullari, xususan, morfologik, leksik- semantik, fonetik, grafik, sintaktik evfemizatsiyalash yo'llari haqida yoritib beriladi. Fikrlar misollar yordamida mustahkamlanadi va evfemizmlar ma'noni saqlab qola olishiga ko'ra ta'riflanadi. Prefikslar yordamida evfemizatsiya hosil qilish, ma'noni o'zgartirishda old qo'shimchalarning roli haqida ham so'z boradi.

Kalit so'zlar: evfemizm, allegorik, tabu, prefikatsiya, meyozi, affiks, R-word, allegorik ifodalar.

Dunyo tilshunosligida evfemizmlarni tadqiq etish masalasi lingvistlar uchun bugungi kunda dolzarb masala hisoblanadi. Evfemizm so'zining etimologiyasi qadimgi yunon tiliga borib taqaladi, (eu-yaxshi, rheta- aytaman) "yaxshi nutq" degan ma'noni anglatadi. Qadimgi davrlardan aynan evfemizmlarga nutqning o'rniligi va axloqiyiligini ta'minlash vazifasi yuklatilgan bo'lib, bu suhbatdoshga ozor bermaslik maqsadida qo'llanilgan. Bugungi kunga qadar evfemizmlarni hosil qilinishi aynan tabu so'zlarning ma'nosi hamda qo'llanilishiga ko'ra vujudga kelgan [3; 19]. Chunki evfemizmlar tabu so'zlar o'rnida qo'llanilib, ularning ma'nosini yumshatib keluvchi til hodisasi hisoblanadi.

Tilshunoslikda evfemizm hosil qilish usullarining bir qancha tasniflari mavjud. Misol uchun, tilshunos J.Lourens evfemizatsiyaning ikki usulini fanga taqdim etadi: 1) allegorik ifodalar; 2) noo'rin so'zlar o'rnida qo'llaniluvchi so'zlar. L.P. Krisin, A.M. Katsev esa evfemizatsiya jarayonini o'rganish orqali bir necha tasniflar yaratib berishgan. J.Nieman va K.Silver ham evfemizatsiya jarayonlarini o'rganish orqali ularni semantik jihatdan sinflarga ajratishni birinchi o'ringa qo'yadi. Olimlarning izlanishlari natijasidan kelib chiqqan holda, evfemizmlarni shakllantirishning quyidagi turlarini keltirish mumkin:

- 1) *Evfemizatsiyaning morfologik usullari*
- 2) *Evfemizatsiyaning leksik-semantik usullari*
- 3) *Evfemizatsiyaning sintaktik usullari*
- 4) *Evfemizatsiyaning fonetik usullari*
- 5) *Evfemizatsiyaning grafik usullari*

Morfologik jihatdan evfemizatsiyalashning uch usulini ko'rishimiz mumkin. Bular meyozi, salbiy prefikatsiya hamda abbreviatsiya usullari hisoblanadi. L. P. Krisin ta'rifiga ko'ra, meyozi- bu qo'pol so'zlar o'rnida qo'llaniluvchi, ularning ma'nosini qisman yumshatib keluvchi so'zlar hisoblanadi. Bunda salbiy so'z va hodisalar asosan affikslar yordamida yumshatiladi. Misol uchun ushbu maqoladan olingan parchada "och bolalar" so'zi o'rnida "qorni ovqatga to'ymagan bolalar" so'zi ishlatilgan: "Only undernourished children living near lychee orchards appeared to suffer during May and June, when the fruit is harvested". (Lichi bog'lari yaqinida yashovchi to'yib ovqat yemaydigan bolalar may va iyun oylarida meva yig'ib olganda azob chekishadi). Keltirilgan misolda muallif och-nahor so'zini ishlatishdan o'zini to'xtatadi sababi ma'noda salbiy bo'yoqdorlik oshib ketishi mumkin edi.

Evfemizatsiyalashning yana bir samarali usullaridan biri salbiy prefiks bilan yasali usulidir [5]. Bunda aytilayotgan so'z oldiga *-un*, *-im*, *-over*, *-dis* prefikslari qo'yilishi orqali qarama-qarshi ma'noli

¹ Termiz Davlat Pedagogika Instituti magistranti



so'z yasaladi. Misol uchun, to'g'ridan-to'g'ri so'zlarning salbiy shakli keltirilmasdan yuqoridagi qo'shimchalar yordamida ma'nosi yumshatilgan shakli yasaladi: *fool-unclever*; *fat-overweight*; *poor-unprivileged*; *rude-impolite* kabi [4; 62]. Fikrimizning isboti sifatida The Guardian jurnalidan olingan ushbu jumlaning keltirishimiz mumkin: "*Social enterprise helps unprivileged people improve well-being by enhancing their relationship with the natural world*". (Ijtimoiy tadbikorlik kam ta'minlangan odamlarning dunyo bilan munosabatlarini yaxshilash orqali ularning farovonligini ijobiylashtirishga yordam beradi). Yuqoridagi misolda esa, *kambag'al* so'zini to'g'ridan-to'g'ri ishlatishdan muallif tiyiladi. Balki uning o'rniga yumshatilgan holatda *unprivileged* so'zini qo'llaydi.

Evfemizmlarni shakllantirishning morfologik usullariga qisqartma so'zlar ham kiradi. Bunday qisqartmalarga tabii so'z yoki iboraning bosh harfi hisoblanuvchi so'zlar olinadi. Qisqartirish so'zning semantik xususiyatlarini pasaytirib yuboradi. So'nggi paytlarda ingliz ommaviy axborot vositalarida "*R-word*" shaklidagi qisqartmani ko'rishimiz mumkin va bu iqtisodiyotdagi keskin tushishni anglatadi [1]. Inqiroz so'zini ochiqdan ochiq qo'llash salbiy ma'noni bo'rttirib bergani uchun ham uning o'rniga muqobil sifatida *recession* so'zining bosh harfi sifatida aynan shu qisqartmadan foydalaniladi. Ommaviy axborot vositalari bugungi kunda noxush so'zlarni bevosita qo'llashdan qochishlari tufayli ham yuzaga kelmoqda. Shunday qilib, evfemizatsiya qilishning morfologik usuli keng tarqalgan. Nutqning evfemizatsiya jarayonlari leksik-semantik darajada ham sodir bo'ladi. Bu darajadagi evfemizatsiya shakllariga: ma'noni umumlashtirish, ma'noni metaforizatsiya qilish, ma'noni metanomizatsiya qilish, ma'noning qutblanishi, perifraza va atamalar kiradi.

Chetdan so'z o'zlashtirish orqali hosil bo'lgan evfemizmlar ham bugungi kun lingvistikasida ko'pchilikni tashkil etadi. O'zlashtirilgan so'zlarning ma'nosi aksariyat insonlar uchun tushunarsiz bo'lib, aynan shu taraflama ma'noning yashirin qolishiga yordam beradi.

Evfemizatsiyaning sintaktik usullariga qo'shimcha ijobiy elementni qo'llash, salbiy ma'no beruvchi elementlarni chiqarib tashlash kabilar kiradi. Evfemizmlar ko'pincha ibora tarkibiga ijobiy tusdagi komponentni kiritish orqali hosil qilinadi. Lekin ba'zi hollarda ijobiy elementni kiritish ham evfemizmlarning ijobiy tus olishini ta'minlay olmaydi. Ba'zan qa'bul qiluvchining tushunishini qiyinlashtirish maqsadida esa murakkab so'z va ifodalardan foydalaniladi. Shuning uchun ham sintaktik evfemizatsiya katta manupulyativ ta'sirga ega deb tan olinadi. Nutq oqimidagi sintaktik tuzilmalar leksik tuzilmalarga qaraganda anchagina murakkabroq.

Evfemizatsiya qilishning yana bir usullaridan biri fonetik usul hisoblanib, ularga tovush analogiyasi, onomatopeya, reduplikatsiya va qofiyaviy jargonni misol qilishimiz mumkin. Ushbu usul ham eng samarali evfemizatsiya qilishning bir ko'rinishi hisoblanadi. Tovush analogiyasi dastlab A.M. Katsev tomonidan o'rganilgan bo'lib keyinchalik asosiy tadqiqot obyektiga aylangan. Tovush analogiyasi deganda, istalmagan so'zni o'xshash tovush birlik bilan almashtirish tushuniladi [6]. Bunda paronimik so'zlar evfemizmlar hosil qilish uchun ishlatiladi. Masalan, so'zlovchi *shit* so'zining o'rniga *shoot* so'zini qo'llaydi. Bunda aynan keltirilgan so'z orqali ma'no ifodalanmaydi balki ma'no o'zgarib ketadi.

V. Z. Sannikov va Yu. S. Baskova kabi olimlar izlanishlar natijasida evfemizatsiya hosil qilishning grafik usulini ham aniqlashgan. Lekin matnlardagi ma'lum cheklovlar natijasida ushbu usul judayam kam uchraydi degan fikrga borishgan. Grafik evfemizmlarning uch turini ko'rish mumkin: sinkopatsiya, apokop va so'zni ellipsis bilan almashtirish. Sinkopatsiya deganda, so'zni o'rtasini ellipsis bilan almashtirish tushuniladi. Masalan, yozma matnda odobsiz til birliklarining o'rta harflari tushirib yoziladi: *f*.k*, *s*x* kabi. Grafik turdagi evfemizatsiyalar tashqi tomondan niqoblangandek ko'rinsada, ularning ma'nosi aniq bo'ladi.

Shunday qilib, ingliz tilida evfemizmlarning shakllanish mexanizmlarini tahlil qilish morfologik, leksik-semantik, sintaktik, fonetik va grafik usullarni kengroq hamda batafsilroq farqlash imkonini beradi. Ularning har biri turlicha ta'sir qilish imkoniyatiga ega. Turlicha o'rinlarda ishlatilishiga ko'ra ham farqlanib turadi.



FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR:

1. Alkire, S. (2002). Introducing euphemisms to language learners. *The Internet TESL Journal*, 8(5). Retrieved from <http://iteslj.org/Lessons/Alkire-Euphemisms.html>.
2. Allan, K., & Burridge, K. (1991). *Euphemism and dysphemism: Language used as shield and weapon*. New York, NY: Oxford University Press.
3. Ibragimova Sugdiyona Ikrom qizi. (2023). The Cross-Cultural Specificity of The Taboo Is the Example of The English and Uzbek Languages. *Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching*, 26, 18–20. Retrieved from <https://geniusjournals.org/index.php/ejlat/article/view/5192>
4. Qodirova Mukaddas Tog'ayevna, . (2022). THE STUDY OF PRAGMATIC FEATURES OF ADDRESSING UNITS IN UZBEK LANGUAGE. *CURRENT RESEARCH JOURNAL OF PHILOLOGICAL SCIENCES*, 3(03), 61–66. <https://doi.org/10.37547/philological-crjps-03-03-12>
5. Артюшкина Л. В. Семантический аспект эвфемистической лексики в современном английском языке : автореф. дис. ... канд. филол. наук / Л. В. Артюшкина. – М.: [б. и.], 2001. – 17 с.
6. Ахмедова.З. Р. Фразеологические эвфемизмы в английском и азербайджанском языках : автореф. дис. ... д-ра филол. наук / З. Р. Ахмедова. – Баку: [б. и.], 2018. – 19 с.
7. <https://byjus.com/english/euphemism/>
8. <https://learn.saylor.org/mod/page/view.php?id=51069>

